

## O'zbek tilida konnotativ ma'nining hosil bolishi

**Maksumova Saida,**

*O'DJTU O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari  
nomzodi O'zbekiston, Toshkent*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o'zbek tilida konnotativ ma'nining hosil bo'lish usullari haqida fikr yuritilgan. Nutqda konnotativ ma'no tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalari orqali hamda ekstralingvistik vositalar deb sanalgan turli imo-ishora va xatti-harakatlar orqali hosil qilinishi misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Konnotatsiya, emotsiyonal, lisoniy kategoriya, subyektiv munosabat, lingvistik, ekstralingvistik, intonasiya, ishora fe'llari, fonatsiya, paralingvistika, jest, mimika.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются способы формирования коннотативного значения в узбекском языке. На основе примеров анализируется формирование коннотативного значения в речи посредством фонетических, лексических, морфологических и синтаксических средств языка, а также посредством различных жестов и поведения, которые считаются экстралингвистическими средствами.

**Ключевые слова:** Коннотация, эмоциональная, языковая категория, субъективное отношение, лингвистическая, экстралингвистическая, интонация, изъявительные глаголы, фонация, паралингвистика, мимика, жест.

*Abstrakt.* This articles discusses the methods of connotativ meaning in the Uzbek language. The formation of connotative meaning in speech through phonetic, lexical, morphological and syntactic means of the language, as well as through various gestures, which are considered extralinguistic means is analyzed on the basis of examples.

**Key words:** Connotation, emotional, linguistic category, subjective attitude, linguistic, extralinguistic, intonation, indicative verbs, phonation, paralinguistics, gesture mimicry.

Ma'lumki, so'z semantik strukturasida qo'shimcha ottenka hisoblanuvchi ekspressiv bo'yoq va stilistik belgilar ifodalagan ma'no tilshunoslikda konnotativ ma'no termini bilan yuritiladi. Konnotatsiya tilning baholovchi - emotsiyonal aspektiga doir lisoniy kategoriya bo'lib, gapiruvchi shaxsning (muallifning) predmetga, narsa va hodisalarga, suhbatdosh shaxsiga, suhbat jarayonidagi vaziyatga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalab keladi va lingvistik, ekstralingvistik vositalarda o'z aksini topadi.

Shu sababli tilshunoslikda konnotativ ma'noni yuzaga chiqaruvchi vositalarning ikki turini farqlash mumkin:

1. Lingvistik vositalar.
2. Ekstralingvistik vositalar.

Lingvistik vositalar konnotativ ma'noni yuzaga chiqaruvchi til birliklari bo'lsa, ekstralingvistik vositalar konnotatsiyani ifodalovchi, biroq til birliklari doirasiga kirmaydigan, ya'ni imo-ishora va gavda harakatlaridir.

Ekspressiv-emosionallik (konnotasiya), asosan, so'zlashuv nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Og'zaki nutq yozma nutq shakli bilan umumiylashtirish asosga ega bo'lsa-da, uning o'ziga xos farqli xususiyatlari ham mavjud.

Yozma nutq uzoq davrlar mobaynida shakllangan, silliqlangan nutq shaklidir. Og'zaki nutq esa tinglovchiga bevosita qaratilgan, muloqot jarayonida yuzaga keluvchi nutqdir. Og'zaki nutq yozma nutqdan talaffuzga asoslanganligi, muloqot jarayonini yengillashtiruvchi o'ziga xos jihatlarga egaligi, ixchamligi bilan farqlanadi.

Og'zaki nutqning me'yoriy xususiyatlarini xarakterlovchi asosiy belgi intonasiya va talaffuzdir. Darhaqiqat, og'zaki nutq dastlab o'ziga xos ohangga egaligi bilan farqlanadi. Intonasiya vositasida so'zlovchi tinglovchi e'tiborini qaratmoqchi bo'lgan muhim bo'laklarni ajratishi, ta'kidlashi, subyektiv munosabatini ifodalashi mumkin.

Ilmiy manbalarda fraza urg'usi, melodiya, ritm, intensivlik, temp, tembr kabi prosodik elementlarning birligidan iborat, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va emosional ma'nolarni ifodalovchi murakkab hodisaning intonasiya ekanligi qayd etiladi.[4-45] Melodiya va frazaviy urg'u intonasiyaning birlamchi, qolgan elementlari ikkilamchi komponentlari tarzida tavsiflanadi.

Melodiya asosiy ohangning tushishi yoki ko'tarilishini ko'rsatadi. Frazalarga bo'lingan nutqda har bir fraza o'z melodiyasiga ega. Odatta, darak ma'nosini ifodalovchi fraza ovozning tushish ohangi bilan, so'roq ma'nosini bildiruvchi fraza esa ko'tarilish ohangi bilan talaffuz etiladi.

Og'zaki nutqda ham umumadabiy tilga xos, ham so'zlashuv nutqiga xos talaffuz xususiyatlari aks etadi. Tilshunoslikda, nutqning xarakter va xususiyatlariga ko'ra talaffuz me'yoring ikki tipi farqlanadi.[5-14] Birinchi tip talaffuz me'yori ma'ruzachilar, aktyorlar, notiqlar uchun xarakterli bo'lib, ulardan adabiy til me'yorlariga rioya qilish talab etiladi, unda har bir so'z aniq, dona-dona talaffuz qilinishi shart. Talaffuzning ikkinchi tip me'yori esa, asosan, so'zlashuv uslubida og'zaki muloqot jarayonida uchraydi .

Ma'lumki, so'zlashuv nutqida umumiste'moldagi so'zlar talaffuzida birmuncha erkinlik seziladi. Bu uslubga oid so'zlar ko'pincha adabiy til me'yorlariga muvofiq kelmaydigan talaffuz belgilariga ega bo'ladi. So'zlashuv nutqida erkin talaffuz bilan bog'liq holda yuz beruvchi quyidagi fonetik o'zgarishlarni kuzatish mumkin:

- 1) undosh tovush kuchli talaffuz natijasida ikkilantiriladi: *uchiga – uchchiga, eshak-eshshak; Essiz mehnatlarim, uyqusiz kechalarim.* (E.Vohidov)
- 2) unli tovush cho‘zib talaffuz qilinadi: *e-rtalab (juda erta), o‘yla-b (uzoq o‘ylab); Jumaboy qo‘lini chakkasiga qo‘yganicha hayro-on o‘tirardi.* (Oybek)
- 3) unli tovush kuchli talaffuz qilinadi: *bala:nd imorat, yo‘g‘o:n odam. ki:r sochiq. Qa:ttiq sovuq, ma:yda qor yog‘ib turar edi.* (A.Qahhor)
- 4) tovush o‘zgarishi: *ko‘jim (ko‘zim), aylanay o‘jimni qijimdan (o‘zimni qizimdan) Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin.* (A.Qahhor)
- 5) tovush tushish: *Qayerning handalagi amak?-dedi u oliftagarchilik qilib.* (Said Ahmad)
- 6) so‘z bo‘g‘inlarga bo‘linib talaffuz qilinadi: *bor-may-man* va hokazo.

Bulardan tashqari konnotativ ma’no supersegment elementlar: intonatsiya, pauza va urg‘u kabilarda ham ifodalanishi aytib o‘tilgan. [6-12] Ko‘rinadiki, so‘zlashuv nutqida kuzatiladigan bu kabi fonetik o‘zgarishlar natijasida ham konnotativ ma’noga yo‘l ochiladi. Demak, nutqda konnotativ ma’noni hosil qilishda fonetik vositalar o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Nutqiy jarayonda nutq subyektining baho munosabatini aks ettirishga xizmat qiluvchi ekspressiv-emosional leksik qatlam o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa, so‘zlashuv uslubi nutqning boshqa uslubiy ko‘rinishlaridan bunday leksik birliklarga boyligi bilan ham xarakterlanadi. Masalan, *do‘ndiq, ketvorgan, suluv, tirjaymoq, bashara* kabi ekspressiv-emosional so‘zlarning faqat shu uslubga xoslanganligi bu uslubda konnotativ ma’noning ustivor bo‘lishini ko‘rsatadi. *Men cho‘chidim afti bir xunuk Basharasi to‘la chandiq qora plashda.* (E.Vohidov)

Nutqimizda erkalash, kichraytirish, hurmat, mensimaslik, kinoya, tantanavorlik, ulug‘vorlikni anglatuvchi so‘zlar hamda affiksoid holiga kelgan -*jon, -xon, -xo‘r, -bachcha, -tillo* kabi subyektiv baho bildiruvchi til birlklari ham keng qo‘llanadi. Bunday birliklar orqali nutq subyekti o‘zining u yoki bu shaxsga nisbatan salbiy yoki ijobjiy munosabatini ifodalay oladi. Masalan, *oyimcha, tirrancha, qaqajon, kekkaymaxon, yetimcha, pashshaxo‘rda, jinnivachcha, oyimtillo* kabilar. *Sizdaqa boyvachchaning o‘ntasini do‘kon-po‘koni, ichak-chavag‘i bilan sotib olishga qurbim yetadi.* (E.Vohidov) Yoki, aksincha, shunday affikslar mavjudki, ular orqali shaxsga nisbatan ijobjiy munosabat ifodalanadi. Masalan: *opajon, kelinchak, otaginiam, bolakay, toychoq* va shu kabilar. *Ey, siz mening yerevanlik do‘stlarim, Qora ko‘zli bolakaylor hush qoling.* (E.Vohidov)

Ko‘rinadiki, bunday hollarda konnotativ ma’no faqat affikslar orqali hosil qilinadi.

Og‘zaki nutq o‘ziga xos sintaktik qurilishga ega. Og‘zaki nutqda emosional-ekspressivlik ritorik so‘roq gaplar, so‘z tartibining o‘zgarishi, takror, vokativ gaplar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, *Men sargardon hayotimda nimani ko‘rdim?* (E.Vohidov) gapi orqali nutq subyekti o‘zi bildirmoqchi bo‘lgan *Men hayotimda hech nimani ko‘rmadim* fikrini ta’sirli ifodalash maqsadida gapning ritorik so‘roq shaklidan foydalanadi. Bu bilan nutq subyekti o‘zi haqidagi axborotni ifodalash bilan birga, hayotidan noroziligi, achinishi kabi hissiyotlarini ham yuzaga chiqaradi.

Og‘zaki nutqda fikrni ta’sirchan ifoda etishda ekstralengvistik vositalardan ham foydalaniladi.

Tilshunoslikda ekstralengvistik vositalarga nutq jarayonida kishilar tomonidan amalga oshiriladigan imo-ishora va turli xatti-harakatlar kiritiladi. Nutq jarayonida fikr ifodalashga xizmat qiladigan bu vositalar tilda real ravishda aks etmaydi. Ekstralengvistik vositalar zarur o‘rinlarda til vositalari orqali yozma nutqqa ko‘chiriladi. Bu vositalar lisoniy vositalar bilan birlgilikda, unga qo‘srimcha tarzda qo‘llaniladi. Natijada ikki axborot chizig‘ini hosil qiladi: birinchisi akustik signallar chizig‘i, ikkinchisi unga yondosh holda qo‘llaniluvchi paralingvistik chiziq. Paralingvistik vositalar yozma nutqqa ko‘chirilganda, ko‘pincha tavsifiy yo‘l bilan maxsus ishora fe’llari orqali ifodalananadi. M.Saidxonov fikr ifodalashda ishtirok etuvchi ekstralengvistik vositalarga fonasiya, kinetika va aralash vositalarni kiritadi. U “adresatga ma’lum axborot berishda ahamiyatli bo‘lgan nutqiy jarayonni kuzatib boruvchi barcha tovushli qo‘srimcha informasiya uzatuvchi vositalar fonasion noverbal vositalar” deb nomlanishini va ekstralengvistik vositalar ichida fonasiya eng faol axborot uzatuvchi usul ekanini ta’kidlab o‘tadi.[3-46] Bu o‘rinda tilshunos I.R.Galperinning quyidagi fikri e’tiborga loyiq: “Paralingvistika uchun nimani aytish emas, balki qanday aytish ahamiyatlidir”. [2-25] Fonasion vositalarga intonasiya, pauza, ovozning sifatiy o‘zgarishlari(cho‘ziq, qisqa, sekin, qattiq talaffuz), ritm kabilari kiradi.

Ekstralengvistik vositalar yordamchi aloqa quroli vazifasini bajarishi bilan birga, konnotativ ma’noni hosil qiluvchi vositalar ham hisoblanadi. Masalan, E.Vohidovning “Istanbul fojiasi” asaridan olingan quyidagi misolda paralingvistik vosita qo‘llash orqali konnotasiya hosil qilingan.

*Sumkali sayyoh – (Bosh barmog‘ini ko‘rsatib) Bundoqlari bor. Yuring, o‘zim ko‘rsataman.*

Yana boshqa misol:

*-Mehmonga ketayotganim yoq,-dedi oyim bosh chayqab. Ishim bor. (O’. Hoshimov)*

Birinchi gapdag “bosh barmog‘ini ko‘rsatib” ishorasini bildiruvchi izoh olib tashlansa, fikr mavhum bo‘lib qoladi. Bu yerda paralingvistik vositaning lisoniy ifodasi (Bosh barmog‘ini ko‘rsatib) *Bundoqlari bor* jumlasidagi axborotning ekspressiv tarzda berilishini ta’milagan. Ikkinchi gapda “bosh chayqamoq” xatti-harakat ifodasi yo‘q inkor so‘z – gapining ta’sirini kuchaytirish maqsadida kiritilgan. Ko‘rinadiki, har ikkala gapda ekstralengvistik vositalar konnotativlik uchun xizmat qilgan.

“Jest va mimikada, — deb yozadi A.Abdullayev, — so‘zlovchining suhbatdoshiga bo‘lgan turlicha psixofiziologik munosabatlari aks etadi.”[1-84] Darhaqiqat, shaxsning ruhiy holati haqida uning xatti-harakatlari va imo-ishoralari orqali ham tasavvurga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi. Chunki inson biror xatti-harakatni amalga oshirganda uning yuz qismida shu harakatning ifodasiga mos o‘zgarish yuz beradi. Bu o‘zgarishni nutqda ifoda etishda, albatta, ekstralengvistik vositalar yordamga keladi. Bu holat matnning ta’sir kuchini yanada oshiradi.

Masalan, *Bo‘ri polvon onasi molxonadan chiqib keldi. Onasi qo‘llari...qop-qora tappi yuqi bo‘ldi! Rais aftini burishtirdi. Yuzini chetga o‘girdi.*

*-Tfu!-deya tupurdi. Qo‘lingizni naryoqqa qiling-e, kampir! Fahm-farosat bormi o‘zi!... (T.Murod)* Ushbu gapda jirkanish ma’nosи “*aftini burishtirdi*”, “*yuzini chetga o‘girdi*” noverbal vositalar orqali yanada kuchaytirilib konnotativ ma’noni bergen.

Shunday qilib, nutqda konnotativ ma’no tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalari orqali hamda ekstralengvistik vositalar sanalgan turli imo-ishora va xatti-harakatlar orqali hosil qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev A. O’zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent, 1987. – B. 84.
2. Galperin I.R. Informativnost - yedinisa yazыка: po kursu общеего языкоznaniye. – M., 1974. – S. 25
3. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent : Fan, 2008 – B. 46.
4. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – B. 45.
5. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O’zbek tili stilistikasi. --Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 14.
6. Haydarov A. Konnotativ ma’nuning fonetik vositalarda ifodalanishi Filol. fanlari nomzodi diss. Avtoreferati T.-2009 B. 21